

«G‘ARBIY FRONTDA O‘ZGARISH YO‘Q»
URUSH DAHSHATLARI VA INSON RUHIYATI SINOVI

Qurbonova Sevinch

Qarshi davlat universiteti 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Dilmurod Yo‘ldoshev

Annotatsiya: *Ushbu maqola Erix Maria Remarkning «G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q» romani asosida yozilgan bo‘lib, asarning urushning inson ruhiga yetkazgan ta‘siri, yosh avlodning azob-uqubatlari va insoniylikning saqlanishi masalalarini yoritadi. Maqola romandagi asosiy mavzular — urushning dahshati, do‘stlik, insoniylik, ramziy ma‘nolar va qahramonlarning psixologik holatini tahlil qiladi. Shuningdek, asarning bugungi kunda dolzarbligi va tinchlikni qadrlashga chaqirishi ham ko‘rib chiqiladi.*

Annotation: *This article is based on Erich Maria Remarque’s novel “All Quiet on the Western Front” and explores the impact of war on the human spirit, the suffering of the younger generation, and the preservation of humanity. The article analyzes the main themes of the novel— the horrors of war, friendship, humanism, symbolic meanings, and the psychological state of the characters. It also examines the novel’s relevance in the modern world and its call to value peace.*

Kalit so‘zlar: *Urush, do‘stlik, insoniylik, tahlil, Remark.*

Keywords: *War, friendship, humanity, analysis, Remarque.*

Jahon adabiyotida urush mavzusini yoritgan ko‘plab asarlar mavjud. Biroq Erix Mariya Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani bu mavzuni o‘zgacha ruhda, chuqur ichki iztirob va inson qalbiga ta‘sir qiladigan samimiy ohangda ochib bergani bilan ajralib turadi. Bu asar urushni qahramonlik va shon-shuhrat sifatida emas, balki insoniyat boshiga tushgan eng katta fojialardan biri sifatida tasvirlaydi. Roman o‘quvchini urush maydoniga olib kiribgina qolmay, askarning yuragi, qo‘rquvi, umidlari va sindirilgan orzularini ham his ettiradi. Asarda yosh askar Pol Boymer va uning do‘stlarining frontdagi hayoti tasvirlanadi. Ular urushga qahramonlik va shon-sharafga erishishni istab keladi, ammo tez orada hayotning eng shafqatsiz va dahshatli tomoniga duch kelishganini anglashganida esa kech bo‘ladi.

Roman voqealari 1914–1918-yillarda, Birinchi jahon urushi davrida sodir bo‘lgan. Asar 19 yoshli askar Paul Boymer tili orqali tasvirlab beriladi. Paul va uning sinfdoshlari vatanparvarlik ruhidagi chaqiriqlar ta‘sirida ko‘ngilli bo‘lib armiyaga ketadilar. Ammo frontga yetib kelgan zahoti ularni urushning haqiqiy qiyofasi — ochlik, sovuq, qo‘rquv va

o‘lim kutib oladi. Roman davomida okoplardagi og‘ir hayot, do‘stlarning birin-ketin halok bo‘lishi, insoniylikning yo‘qolishi ta’sirchan tarzda tasvirlanadi. 150 kishilik rotadan atigi 32 kishi tirik qolishi urushning naqadar shafqatsiz ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Paul ta’tilga chiqqanida ham tinch hayotga moslasha olmaydi: urush uni ich-ichidan o‘zgartirib yuborgan edi. U endi urush haqida gapirishni istamaydi, yolg‘izlikni afzal ko‘radi.

Roman qahramonlari oddiy insonlar bo‘lib, har biri urush qurboniga aylanadi. Albert Kropp oyog‘idan ayraladi, Myuller qorin qismiga tekkan snaryad tufayli halok bo‘ladi, Leer qon yo‘qotishdan vafot etadi. Frans Kemmerix esa oyoqlari kesilganidan keyin hayotga bo‘lgan umidini yo‘qotib, o‘limni tanlaydi.

Paul uchun eng yaqin insonlardan biri — Stanislav Katchinskiy (Kat) bo‘ladi. Tajribali, aqlli va hayotiy maktabdan o‘tgan Kat Paulga nafaqat urushda omon qolishni, balki inson bo‘lib qolishni ham o‘rgatadi. Uning o‘limi Paul uchun eng og‘ir zarba bo‘ladi va urushning hech kimni ayamasligini yana bir bor isbotlaydi.

Remark urushni insoniylikni yeb bitiruvchi, ma’nosiz jarayon sifatida ochib beradi. Okopdagi sovuq, xavf, ochlik, yaralar va do‘stlarning halokati — bularning barchasi urushning inson ruhiga yetkazadigan sinovlarini ifodalaydi. Pol va uning do‘stlari asta-sekin urushning ularni qanday o‘zgartirganini, hayotning ma’nosizligini va qurbonliklarning hech kimga kerak emasligini tushunadilar.

Urush sharoitida do‘stlik va insoniylik kuchini ko‘rsatadi. Bir-birini qo‘llab-quvvatlash, birga azoblarni yengish orqali askarlar tirik qolishga harakat qiladilar. Ammo urushning shafqatsiz ta’siri oldida hatto eng mustahkam do‘stlik ham zaiflashadi.

Remarkning realizm, psixologik tahlil va ramziy vositalardan foydalangan uslubi o‘quvchini voqealarga to‘liq jalb qiladi. Masalan, bir askardan boshqasiga o‘tadigan etiklar urushning davomiyligi va o‘limning uzluksizligini ramziy qiladi. Romanning eng yurakka tegadigan sahnasi — Pol Boymerning o‘limi, frontdan kelgan hisobotda esa yoziladi: «G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q». Bu sahna urushning ma’nosizligi va inson hayotining qadrsizligini ko‘rsatadi.

Xulosa

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani aniq bir g‘oyani ilgari suradi: urush — bu fojia, u hech kimga baxt keltirmaydi. Asar nomi ramziy ma’noga ega: tashqi tomondan frontda go‘yoki “o‘zgarish yo‘q”, ammo aslida butun bir avlod yo‘q bo‘lib ketgan. Roman urushni oqlagan, askarlarni qahramon sifatida ko‘rsatgan o‘sha davr adabiyotiga keskin qarshi turadi. Shu sababli u natsistlar tomonidan taqiqlangan, kitoblar omma oldida yoqib yuborilgan. Biroq shunga qaramay, asar o‘z umrini davom ettirdi va bugungi kungacha jahon adabiyotining durdonalaridan biri sifatida o‘qilmoqda.

Remarkning bu asari menga urushning haqiqiy yuzini – shafqatsizliklari, ichki iztiroblari va inson ruhiyatining zaifliklarini – tushunishga yordam berdi. Va shu sababli u, har bir kitobxon uchun, nafaqat tarixiy voqea, balki hayotiy saboq manbai bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://web.archive.org/web/20101128195511/http://e-lingvo.net/library_view_38996_1.html 2010-11-28da asl nusxadan arxivlandi,
2. Remarque, E. M. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q.
3. Remarque, E. M. All Quiet on the Western Front. — English translation.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBarbiy_frontda_o%CA%BBzgarish_yo%CA%BBq_\(film\)#cite_ref-TIFF_1-0](https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBarbiy_frontda_o%CA%BBzgarish_yo%CA%BBq_(film)#cite_ref-TIFF_1-0)